

# DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

**2025**

**6-SON**

(+998) 50-005-45-69

[https://t.me/demografiya\\_mehnatbozori](https://t.me/demografiya_mehnatbozori)

[demografiya\\_mehnat\\_bozori@mail.ru](mailto:demografiya_mehnat_bozori@mail.ru)

**DEMOGRAFIYA  
VA MEHNAT  
BOZORI**

**2025-yil  
6-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal  
Электронный научно-популярный  
журнал  
Electronic popular science journal

**BOSH MUHARRIR:**

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

**MUHARRIR:**

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

**TAHRIR HAY' ATI:**

**Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,**

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,**

**Axmedov Durbek Qudratillaevich, i.f.d., professor**

**Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,**

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,**

**Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,**

**Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,**

**Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,**

**Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,**

**Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor**

**Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.**

**Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor**

**Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor**

**Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)**

**Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor**

**Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)**

**Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD**

**Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent**

**Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD**

**Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD**

**Asqarova Muhabbat Ibraximovna**

**Bahriddinova Muazzam Azam qizi**

## YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA BARQAROR IQTISODIYOT O'SISHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

**Rustamov Maqsud Suvonqulovich**  
TDIU Bank ishi kafedrası DSc., prof.

**Boqiyeva Zuhra Sohibjon qizi**  
TDIU Bank ishi fakulteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada global yashil iqtisodiyot tushunchasi, yashil iqtisodiyotning paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan omillar, xorijiy olimlarning "Yashil iqtisodiyot" tushunchasiga yondashuvlari, "Yashil iqtisodiyot" tushunchasiga o'zbek olimlarining yondashuvlari, yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyotning atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish jihatlari bilan bog'liq jihatlari yoritib o'tilgan. Maqolada yashil iqtisodiyotning turli xil kategoriyalarining ko'rsatkichlarini aniqlash indeklari, ular haqida ma'lumotlar va ulardan foydalanish usullari ham yaqqol yoritib o'tilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari, amalga oshirilayotgan bir qancha islohotlar va xalqaro tajribalar bilan solishtirishlar keltirib o'tilgan. Iqlim o'zgarishlar va ekologik muammolarga qarshi kurashish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda suv resurslaridan tejamkorona foydalanish bo'yicha mamlakatning strategik yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** Yashil iqtisodiyot, energiya, barqaror rivojlanish, BMT, UNEP, integratsiya, o'sish strategiyalari, resurslar, global iqlim o'zgarishlari, uglerod chiqindilari, innovatsion rivojlanish, energetika, Global Green Economy Index, Environmental Performance Index, global iqlim, ekologik turizm, qishloq xo'jaligi, tabiiy resurs, energetik inqirozlar, ekologik barqarorlik, ekologik tanqislik, ekotizim, infratuzilma.

## НАПРАВЛЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ

**Рустамов Мақсуд Сувонкулович**  
Кафедра банковского дела ТГЭУ DSc., проф.

**Бокиева Зухра Соhibжон кизи**  
Студентка факультета банковского дела ТГЭУ

**Аннотация.** В данной статье анализируются понятие глобальной зеленой экономики, факторы, способствующие ее возникновению, подходы зарубежных и узбекских ученых к концепции "зеленой экономики," ее основные принципы и этапы развития. Освещаются аспекты зеленой экономики, связанные с охраной окружающей среды, экономической стабильностью и эффективным использованием ресурсов. В статье также подробно рассматриваются индексы для определения показателей различных категорий зеленой экономики, приводится информация о них и методах их применения. Кроме того, в статье представлены процессы перехода к зеленой экономике в Узбекистане, ряд проводимых реформ и сравнения с международным опытом. Рассмотрены стратегические направления страны по борьбе с изменением климата и экологическими проблемами, использованию возобновляемых источников энергии и рациональному использованию водных ресурсов.

**Ключевые слова:** Зеленая экономика, энергия, устойчивое развитие, ООН, ЮНЕП, интеграция, стратегии роста, ресурсы, глобальное изменение климата, выбросы углерода, инновационное развитие, энергетика, Global Green Economy Index, Environmental Performance Index (EPI), глобальный климат, экологический туризм, сельское хозяйство, природные ресурсы, энергетические кризисы, экологическая устойчивость, экологический дефицит, биологический, экосистема, инфраструктура.

## DIRECTIONS FOR ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE CONTEXT OF TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

**Rustamov Maqsud Suvonqulovich**

DSc., Prof. of the Banking Department at TSUE

**Boqiyeva Zuhra Sohibjon qizi**

Student of the Faculty of Banking at TSUE

**Abstract.** This article analyzes the concept of the global green economy, factors leading to the emergence of the green economy, approaches of foreign scholars to the concept of "green economy," perspectives of Uzbek scientists on the concept of "green economy," and the fundamental principles and developmental stages of the green economy. The aspects of the green economy related to environmental protection, economic stability, and efficient use of resources are highlighted. The article also clearly outlines the indices for determining indicators

of various categories of the green economy, providing information about them and methods for their application. Additionally, the article presents the processes of transitioning to a green economy in Uzbekistan, a number of ongoing reforms, and comparisons with international experiences. The country's strategic directions for combating climate change and environmental issues, utilizing renewable energy sources, and efficiently managing water resources were examined.

**Keywords:** Green economy, energy, sustainable development, UN, UNEP, integration, growth strategies, resources, global climate change, carbon emissions, innovative development, energy, Global Green Economy Index, Environmental Performance Index, global climate, ecotourism, agriculture, natural resources, energy crises, ecological sustainability, ecological scarcity, ecosystem, infrastructure.

### **Kirish.**

Yashil iqtisodiyot - bu iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolatni uyg'unlashtirgan model bo'lib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, havoni va suvni ifloslantirishni nazorat qilish, energiya samaradorligini oshirish kabi omillarga asoslanadi. Jahonda iqlim o'zgarishi, resurslarning cheklanganligi va ekologik muammolar kengayayotgani sababli, davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tishni strategik yo'naltirish sifatida qabul qilishmoqda. O'zbekiston ham 2019-2030 yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini belgilab, sohalarda mos siyosatlar, moliyalashtirish manbalari va qonunchilik asoslarini shakllantirishga kirishgan. Ushbu ishda biz yashil iqtisodiyotga o'tish shartlarini tahlil qilib, barqaror o'sishni ta'minlovchi yo'nalishlarni aniqlashga harakat qilamiz.

Yashil iqtisodiyot – ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin asosan siyosiy termin sifatida foydalaniladi. [1] Yashil iqtisodiyot tushunchasi BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan 2008-yilda rasman ilgari surilgan. Ushbu dasturda yashil iqtisodiyot "inson farovonligi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan, ayni paytda ekologik xavflarni va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni kafolatlaydigan iqtisodiyot" deb ta'riflanadi. Bu iqtisodiyot modeli uglerod chiqindilarini kamaytirishga, energiya va resurslardan samarali foydalanishga, barqaror qishloq xo'jaligi, yashil texnologiyalar va ekologik toza sanoatga e'tibor qaratadi. [2]

Yashil iqtisodiyotning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan omillar:

1. Iqlim o'zgarishi. XXI asrning boshlarida global iqlim o'zgarishining jiddiy oqibatlarini yaqqol namoyon bo'ldi, bu esa ekologik masalalarni yechishda yangicha yondashuvlarni talab qildi.

2. Energetik inqirozlar. Neft inqirozi va energiya resurslarining cheklanganligi dunyo iqtisodiyoti uchun yangi energiya manbalariga ehtiyoj

tug'dirdi. Yashil energetika - quyosh, shamol, biogaz kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga e'tibor kuchaydi.

3. Xalqaro tashabbuslar. 1992-yilgi Rio-de-Janeyrodagi "Yer sammiti" kabi global anjumanlar ekologik barqaror rivojlanishni rag'batlantirdi va hukumatlar, tadbirkorlar hamda notijorat tashkilotlar yashil iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlay boshladilar.

4. Ekologik faolli va jamiyatchilikning bosimi. Ko'plab ekologik harakatlar va faollar atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga ko'proq e'tibor qaratilishini talab qilin chiqishdi.

### Adabiyotlar sharhi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti yashil iqtisodiyotni "past uglerodli, resurslardan samarali va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi" deb ta'riflaydi. Yashil iqtisodiyotda ish bilan bandlik va daromadning o'sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, shuningdek, biologik xilma-xillik va ekotizm xizmatlarining yo'qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali oshiriladi.[8]

1-jadval

### Xorijlik olimlarning "Yashil iqtisodiyot" tushunchasiga yondashuvlari

Olim / Mutaxassis nomi	"Yashil iqtisodiyot"ga yondashuv	Manbaasi
Pearce, D. (1989)	Yashil iqtisodiyot g'oyasini rivojlanishga ekologik mulohazalar integratsiyalashgan iqtisodiy model sifatida kiritdi.	Blueprint for a Green Economy [3]
Barbier, E. (2011)	Yashil iqtisodiyotni iqtisodiy o'sishini ekologik salomatlik bilan muvozanatlash orqali barqaror rivojlanishga erishish vositasi sifatida belgilaydi.	The Policy Journal of the UNEP Green Economy Initiative [4]
Jacobs, M. (1991)	Ekologik barqarorlikni kengroq ijtimoiy adolat va iqtisodiy islohotlar bilan bog'lash orqali yashil o'sishni targ'ib qiladi.	The Green Economy: Environment, Sustainable Development and the Politics of the Future
UNEP (2011)	Yashil iqtisodiyot inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilash bilan birga ekologik xavflarni sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyot sifatida qaraydi.	United Nations Environment Programme (UNEP), Green Economy Report [5]
Costanza, R. (1997)	Yashil iqtisodiyotni ekologik va iqtisodiy tizimlarni birlashtirish orqali haqiqiy ijtimoiy farovonlikka erishishga qaratilgan iqtisodiyot sifatida talqin qiladi.	Ecological Economics: The Science and Management of Sustainability [6]
OECD (2012)	Yashil o'sish strategiyalariga e'tibor qaratiladi, innovatsiyalarga, resurslardan samarali foydalanishga va o'sishni atrof-muhitning tanazzulidan ajratishga urg'u beradi.	OECD Green Growth Studies [7]
Schmalensee, R. & Stavins,	Yashil iqtisodiyotga o'tish vositasi sifatida uglerod narxini belgilash kabi bozorga asoslangan yechimlarni	The Review of Environmental

R.	ta'kidlaydi.	Economics and Policy
----	--------------	----------------------

Quyida 2-jadvaldan ko'rinadiki, o'zbek olimlari yashil iqtisodiyot tushunchasini turli yo'nalishlarda talqin qiladilar. I. Yuldashev va M.Yuldashevlar yashil iqtisodiyotni bizga berilgan resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanat va inson salomatligini ta'minlash bilan bog'laydilar.

Sh.To'raev yashil iqtisodiyotni qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishni, A.Karimov esa infratuzilma va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini asosiy vazifa sifatida ko'rsatadi.

F.Nasimov sanoat chiqindilarini kamaytirishga urg'u berar ekan J.Mahkamov innovatsiya va moliyaviy mexanizmlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Shu bois, yashil iqtisodiyotga oid qarashlar qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika va innovatsion rivojlanishni qamrab olgan kompleks yondashuvni aks ettiradi.

## 2-jadval

### “Yashil iqtisodiyot” tushunchasiga o'zbek olimlarining yondashuvlari

Olimlarning familiyasi	Yondashuvi	Manbaasi
<b>Yuldashev I.</b>	Yashil iqtisodiyotni mamlakat resurslaridan samarali foydalanish va ekologik muammolarni kamaytirish yo'lidagi strategiya deb qaraydi.	Yuldashev I., “O'zbekistonda yashil iqtisodiyot: rivojlanish yo'nalishlari”, 2020. [9]
<b>Yuldashev M.</b>	“Yashil iqtisodiyot” bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyalarni barqaror toza musaffo havo bo'lishini ta'minlagan holda saqlab qolish ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishidir deb izohlangan.	O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy, tashkiliy huquqiy asoslarining yaratilishi va rivojlantirilishi. 2024. [10]
<b>To'raev Sh.</b>	Yashil iqtisodiyotni qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish uchun muhim yo'nalish deb ta'riflaydi.	To'raev Sh., “Qishloq xo'jaligi va yashil iqtisodiyot: ilmiy yondashuvlar”, 2019. [11]
<b>Karimov A.</b>	Infratuzilmani yangilash va qayta tiklanuvchi energiya manbaalaridan foydalanishni yashil iqtisodiyotning asosiy vazifalari sifatida ko'radi.	Karimov A., “Yashil iqtisodiyotda infratuzilma masalalari”, 2021. [12]
<b>Nasimov F.</b>	Yashil iqtisodiyotni sanoatning uglerod chiqindisini kamaytirish va barqaror ishlab chiqarishga o'tish jarayoni deb baholaydi.	Nasimov F., “Sanoat va yashil iqtisodiyotning o'zaro aloqalari”, 2022. [13]
<b>Mahkamov J.</b>	Barqaror rivojlanish uchun yashil iqtisodiyotni innovatsion texnologiyalar va moliyalashtirish masalalari bilan bog'laydi.	Mahkamov J., “Yashil iqtisodiyot va innovatsiyalar: O'zbekistondagi muammolar va yechimlar”, 2021. [14]

Yashil iqtisodiyotga o'tish, global iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning yomonlashuvi kabi muammolarni hal qilishda muhim qadamdir. Ushbu jarayon, iqtisodiyotni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida qayta shakllantirishni, ya'ni energiya va resurslarni samarali ishlatishni, ekologik zararlarni kamaytirishni hamda ijtimoiy tenglikni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada ilmiy abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, matematik analiz, ekspert baholash kabi zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Yashil iqtisodiyot, resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy adolatni ta'minlashni maqsad qilgan iqtisodiy tizim sifatida keng tarqalmoqda. Ushbu o'tish jarayoni, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, tabiiy resurslarni asrab-avaylash va kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanish sharoitlarini yaratishni o'z ichiga oladi. Yashil iqtisodiyotga o'tish uchun turli iqtisodiy mexanizmlar mavjud va ularning maqsadi ishlab chiqarish va iste'mol qilish tizimlarini ekologik mezonlarga moslashtirishdir. "Yashil" bo'lish mamlakatning tabiiy muhit va uning resurslarini saqlash va tiklash, shuningdek, fuqarolar salomatligiga qanchalik qayg'urishini aks ettiradi. Bu siyosat ishlab chiqish va joriy chora-tadbirlarning samaradorligi orqali namoyon bo'ladi. Biroq, biz ko'rib turganimizdek, ba'zi mamlakatlar atrof-muhitga boshqalarga qaraganda ko'proq ustunlik beradi.

Global Green Economy Index (GGEI) 160 ta davlatning yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlarini 18 ko'rsatkich bo'yicha baholaydi. GGEI 4 ta asosiy o'lchov bilan belgilanadi: iqlim o'zgarishi va ijtimoiy tenglik, sektorni dekarbonizatsiya qilish, bozorlar va ESG investitsiyalari va atrof-muhit salomatligi. GGEI 2010-yilda ishga tushirilgan birinchi yashil iqtisodiyot indeksi bo'lib, bugungi kunda siyosatchilar, xalqaro tashkilotlar, ESG investorlari va kompaniyalar tomonidan mamlakatning yashil iqtisodiyotu ko'rsatkichlari va o'zlarining tijorat yoki tashkiliy kun tartibi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash va tushunish uchun foydalaniladigan xalqaro miqyosdagi eng tarqalgan mahsulot hisoblanadi.

Ko'pgina indekslar singari, GGEI ham samaradorlikni baholash, ESG investitsiya strategiyasi haqida ma'lumot berish, yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalar haqida ma'lumot berish va turli manfaatdor tomonlarni qanday qilib taraqqiyotga yordam berishi mumkinligini o'rgatish uchun ishlatiladi. GGEI turli manfaatdor tomonlar uchun moslashtirilgan barqarorlikni o'lchash

tizimini yaratish uchun bizning modelimizdan foydalanish maxsus barqarorlik asoslari. GGEI AQSHda joylashgan xususiy konsalting kompaniyasi Dual Citizen MChJ tomonidan nashr etilgan. Global Green Economy Index Dual Citizen MChJning savdo belgisidir. [15] Mamlakatning yashil qiladigan narsaning turli tomonlarini o'lchaydigan ko'plab ko'rsatkichlar va indekslar mavjud. Masalan, YeI universiteti tomonidan Atrof-muhit samaradorligi indeksi (EPI) va Massachusetts Texnologiya Instituti (MIT) tomonidan Yashil kelajak indeksi (GFI) mavjud bo'lgan eng mashhur indekslardan ikkitasi. Ushbu indekslarning ikkalasi ham keng qamrovli bo'lib, atrof-muhit ko'rsatkichlariga asoslangan mamlakatlarni tartiblaydi, ammo ularning metodologiyasida farqlar mavjud, jumladan ular qaysi ko'rsatkichlarni baholashni tanlashadi.

Environmental Performance Index (EPI) (2022) YeI universiteti tomonidan qaysi mamlakatlar ekologik muammolarni eng yaxshi hal etayotganini aniqlash uchun ishlab chiqilgan. U iqlim o'zgarishi samaradorligi, atrof-muhit salomatligi va ekotizim hayotiyiligi bilan bog'liq 40 ta samaradorlik ko'rsatkichlardan foydalanadi. U 40 ta ko'rsatkichni qamrab olishi bilan bir qatorda 180 ta davlatni qamrab olganligi sababli ushbu mavzu bo'yicha eng keng ko'lamli tadqiqotlarga ega hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqining Qo'shma tadqiqot markazining 2020-yilgi hisobotida 200 dan ortiq mamlakat va hududlarning qazilma CO<sub>2</sub> emissiyasi ko'rib chiqiladi. Bu aholi sonini hisobga olish uchun aholi jon boshiga CO<sub>2</sub> emissiyasini o'z ichiga oladi. Biz ushbu ko'rsatkichni kiritish muhim deb hisoblaymiz, chunki karbonat angidrid global isish uchun asosiy va eng zararli ifloslantiruvchi hisoblanadi. Bundan tashqari, u gipotetik kelajakdan farqli o'laroq, mamlakatlarning uglerod izlari qanday turishini ko'rsatadi.


IQAir (2021) havoning ifloslanishiga qarshi kurashish uchun real vaqt rejimida dunyodagi eng yirik bepul havo sifati axborot platformasini taqdim etadi. Ular 117 mamlakat va hududlar uchun yillik o'rtacha PM<sub>2,5</sub> konsentratsiyasi (mkg/m<sup>3</sup>) haqida ma'lumot beradi. PM<sub>2.5</sub> diametri 2,5 mikrometrdan kam bo'lgan mayda zarralarni anglatadi. Ular uzoq vaqt davomida havoda to'xtatilgan holda qoladilar va nafas olish yo'llariga chuqur kirib borishlari va hatto qon oqimiga kirishlari mumkin. Bu o'pka saratoni va yurak kasalliklarining ko'payishi bilan bog'liq. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining havo sifati bo'yicha ko'rsatmalari yillik o'rtacha 5 mkg/m<sup>3</sup> va 24 soatlik o'rtacha 15 mkg/m<sup>3</sup> ni tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkich PM<sub>2.5</sub> ifloslantiruvchisi dunyo aholisi salomatligi uchun katta xavf tug'dirishi sababli tanlangan. Bundan tashqari, aholi jon boshiga CO<sub>2</sub> emissiyasiga o'xshab, ushbu ma'lumotlar nuqtasi hozirgi vaqtda mamlakatlarning qanday ishlashini va natijada odamlar salomatligiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Global miqyosdagi eng yashil va eng kam yashil mamlakatlarni tahlil qiluvchi keng qamrovli tajriba o'tkazilib, unda 4 xil hisobotlar birlashtirilgan va solishtirilgan. Ya'ni YeI universitetining Atrof-muhit samaradorligini indeksi (EPI), Yevropa Ittifoqining Qo'shma tadqiqot markazi (JRC) hisoboti, Massachusets Texnomoliya institute (MIT) Yashil kelajak indeksi (GFI) va IQ Air axborot platformasi yordamida kuzatishlar amalga oshirilgan, Bunda top 10 ro'yxatda Yevropa davlatlari yetakchilik qilayotgani aniqlangan. Ilgari Markaziy Amerikadagi kichik bir davlat o'z belgisini qo'ygan edi. Kosta-Rika ushbu tahlil asosida 7-eng yashil mamlakat edi. Biroq, endi u Lotin Amerikasi va Karib havzasi bo'yicha 15-o'rinni va EPI asosidagi global reytingda 68-o'rinni egallaydi. [16] So'nggi o'n yilliklarda yashil iqtisodiyot global miqyosda jadal rivojlanib, ko'plab davlatlarning iqtisodiy siyosatida muhim o'rin egallay boshladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash global iqtisodiy modelning ustuvor yo'nalishlariga aylandi. Ushbu o'zgarishlarning asosiy sababi iqlim o'zgarishlari. Tabiiy resurslarning kamayib borishi va ekologik muammolarning ortib borayotganidir.

Bugungi kunda ko'plab davlatlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini o'z iqtisodiy siyosatlariga integratsiya qilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi (YEI) 2019-yilda "Yashil kelishuv (Green Deal) dasturini qabul qilib, 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishishini maqsad qilgan. Ushbu dastur doirasida qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik texnologiyalarni rivojlantirishga katta mablag' ajratilmoqda va jarayon amalga oshirilmoqda.

Xitoy ham yashil iqtisodiyotga sarmoya kiirtayotgan davlatdan biri hisoblanadi. 2020-yilda Xitoy hukumati 2060-yilgacha uglerod neytralligiga erishish rejalarini e'lon qildi va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoyalarni oshirishga harakat qilmoqda. AQSh esa yashil energiya va uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha turli qonun va dasturlarni ishlab chiqmoqda. Sobiq prezident Jo Baydenning "Toza energiya rejasi" yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim qadamlardan biri sifatida muhim o'rin tutadi. BMT, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi xalqaro tashkilotlar yashil iqtisodiyot tamoyillarini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratmoqda. Xususan, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga oid ko'plab tashabbuslarni ilgari surmoqda. 2015-yilda qabul qilingan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) ham ekologik muvozanat va uglerod chiqindilarini kamaytirishga asoslangan iqtisodiyotga o'tish zaruratini ta'kidlaydi. Barqaror rivojlanish maqsadlari – bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda qabul qilingan va 2030-yilgacha erishilishi rejalashtirilgan 17 ta global maqsaddan

iborat dasturdir. Ushbu dastur amalda o'z natijalarini ko'rsatmoqda.



**1-rasm. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining amalga oshirilishi bo'yicha O'zbekistonda ijobiy natijalar (2023)**

*Manba:* BMT O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2023.

Kelajakda yashil iqtisodiyotning global miqyosda rivojlanishi yanada jadallashishi kutilmoqda. Xususan, yangi texnologiyalar, ekologik innovatsiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi yashil iqtisodiyotning asosiy drayverlariga aylanadi. Davlatlar va xalqaro tashkilotlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida global iqtisodiy tizim yanada ekologik barqaror va resurslarni samarali boshqarishga asoslangan shaklga kelishi mumkin va bu o'z natijasini bermoqda. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari. O'zbekiston tabiiy resurslarga boy mamlakat bo'lsa-da, an'anaviy iqtisodiy modelning ekologik muammolarga olib kelayotgani sababli yashil iqtisodiyotga o'tish zaruratga aylandi. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlarining tahlil qilinishi [17]:

1. Yashil iqtisodiyotga o'tishning zaruriyati. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish quyidagi omillar bilan bog'liq:

Ekologik muammolar: iqlim o'zgarishi, yerlarning degradatsiyasi, suv tanqisligi va havo ifloslanishi. Resurslarning cheklanganligi: neft, gaz va ko'mir kabi an'anaviy energiya manbalarining tugashi.

Sanoat va qishloq xo'jaligi ta'siri: sanoat chiqindilarining ortishi, suvdan samarali foydalanish masalalari.

Xalqaro majburiyatlar: O'zbekiston xalqaro ekologik kelishuvlar, doirasida barqaror rivojlanishni ta'minlashga intilmoqda.

2. Rivojlanish bosqichlari:

Dastlabki bosqich (2010-2020-yillar). Bu bosqichda O'zbekiston hukumati ekologik muammolarga e'tibor qaratib, quyidagi dasturlarni ishlab chiqdi:

- 2017-yilda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini ishlab chiqish;
- Muqobil energetika manbalaridan foydalanishni kengaytirish;
- 2019-yilda Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to’g’risidagi qonunni qabul qilish.

Jadal rivojlanish bosqichi (2021-2030-yillar). Ushbu davrda quyidagi ustuvor yo’nalishlar belgilangan:

- Iqtisodiyotni “yashil” texnologiyalar bilan modernizatsiya qilish;
- Sanoat va transport sektorida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish;
- Qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25%ga yetkazish;
- Ekologik turizmni rivojlantirish.

Uzoq muddatli rivojlanish bosqichi (2030-yildan keyin):

- to’liq “yashil iqtisodiyot” modeliga o’tish;
- uglerod neytrallikka erishish;
- ekologik toza transport tizimini joriy etish;
- barqaror qishloq xo’jaligini rivojlantirish.

Global iqlim o’zgarishlari va O’zbekiston. Global iqlim o’zgarishlari butun dunyoga ta’sir qilayotgani kabi O’zbekistonga ham ta’sir ko’rsatmoqda. Havo haroratining ko’tarilishi va suv tanqisligi qishloq xo’jaligi, ichimlik suvi ta’minoti hamda ekologik muvozanatga salbiy ta’sir qilmoqda. Xususan, Amudaryo va Sirdaryo suvi kamayib, cho’llashuv jarayoni tezlashmoqda. Bu esa o’rmonlar qisqarishiga va bioxilma-xillikning kamayishiga olib kelmoqda.

O’zbekiston ushbu muammolarni hal qilish uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga e’tibor qaratmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, ayniqsa, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish kengaymoqda. Qishloq xo’jaligida suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilmoqda. Shuningdek, cho’llashuvga qarshi daraxt ekish dasturlari amalga oshirilmoqda.

3-jadval

### O’zbekiston Respublikasi Davlat budjetining iqlim bilan bog’liq faoliyatga ajratilgan ulushi (%) [18]

	Jami iqlim o’zgarishi bilan bog’liq ijobiy harajatlar	Iqlim ta’sirini yumshatish bilan bog’liq harajatlar	Iqlim o’zgarishiga moslashish bilan bog’liq harajatlar	Iqlim o’zgarishi bilan bog’liq salbiy harajatlar
Milliard so’m	26302,4	612,7	25414,8	1006,0
Davlat budjetida % ko’rinishida	11,1%	0,3%	10,7%	0,4%

**Manba:** O’zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va xarajatlari tahlili (in-academy.uz,2023)

3-jadvalda berilgan raqamlarni tahlil qilganimizda, O’zbekiston Respublikasi Davlat budjetining iqlim bilan bog’liq faoliyatga ajratilgan ulushini va harajatlarni quyidagicha o’rganish mumkin. Jami iqlim o’zgarishi

bilan bog'liq ijobiy harajatlar- 26 302,4 milliard so'm. Bu, jami davlat bidjetining 11,1% ini tashkil etadi. Demak, davlatning umumiy xarajatlarining sezilarli qismi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ijobiy faoliyatlarga, ya'ni, iqlim ta'sirini yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashishga qaratilgan. Iqlim ta'sirini yumshatish va iqlim o'zgarishiga moslashishga qaratilgan. Iqlim ta'sirini yumshatish (carbon mitigation) – ya'ni uglerod chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish kabi faoliyatlarga ajratilgan mablag'larning ulushi jami budjetining atigi 0,3% ni tashkil etadi. Bu, iqlimga qarshi kurashish uchun hali ham past darajadagi sarmoyani ko'rsatadi., bu soha uchun ko'proq resurslar ajratilishi mumkin. Iqlim o'zgarishiga moslashish (climate adaption) – bu soha, ya'ni suv ta'minoti, qishloq xo'jaligi va hududiy infratuzilma kabi sohalarga moslashishni ta'minlashga ajratilgan mablag'larning ulushi 10,7% ni tashkil etadi. Bu, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlaridan (qurg'oqchilik, to'fonlar, suv tanqisligi) himoyalashga katta e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq salbiy harajatlar – 1006,0 milliard so'm. Iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlariga qarshi kurashish, ya'ni iqlim o'zgarishining zararlarini bartaraf etishga ajratilgan mablag'lar 0,4% ni tashli etadi. Bu ham past ko'rsatkich bo'lib, bu sohadagi faoliyatning ko'payishi kerakligini ko'rsatadi. O'zbekiston iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda va iqlimga moslashishda faoliyatini davom ettirmoqda, lekin ba'zi sohalarda, masalan, iqlim ta'sirini yumshatish va salbiy ta'sirlarga qarshi kurashishda ko'proq mablag' ajratilishi zarur. Bu, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoyalar va karbon chiqindilarini kamaytirishning yanada samarali usullari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Hukumat xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqmoqda. Uzoq muddatli rejalarga ko'ra, ekologik muvozanatni saqlash va iqlim o'zgarishiga moslashish O'zbekiston uchun muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda 1-o'rin va MDH davlatlari bo'yicha 2-o'rin olishiga erishishi, mamlakatning yashil iqtisodiyot sohasidagi faoliyatini muvaffaqiyatli olib borayotganini ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligini oshirish, va iqlimga moslashish kabi sohalarda olib borilayotgan yirik investitsiya loyihalari va siyosiy tashabbuslarning samarasini bildiradi (4-jadval).

#### 4-jadval

#### Yashil iqtisodiyot bo'yicha O'zbekistonning xalqaro reytingi [13]

Hudud	O'rin
Markaziy Osiyo	1
MDH davlatlari	2
Osiyo	4
Dunyo	13

**Manba:** *Global Green Economy Index, 2023.*

Yashil iqtisodiyot bo'yicha O'zbekistonning xalqaro reytingi Osiyo bo'yicha 4-o'rin va dunyo bo'yicha 13-o'rin olish orqali global miqyosda yashil iqtisodiyot bo'yicha yuksak pozitsiyaga ega bo'lishi, bu sohada erishilgan muvaffaqiyatlarni ta'kidlaydi va boshqa davlatlarga nisbatan ijobiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Bu O'zbekistonning iqlimga qarshi kurashish va barqaror rivojlanishga bo'lgan jiddiy yondashuvi va global o'zgarishlarga moslashishdagi qat'iyligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligida suvni tejash dolzarb masalalardan biridir. So'nggi yillarda tomchilatib sug'orish, yomg'irilatib sug'orish va lazer yordamida yer tekislash texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Bu usullar suv sarfini kamaytirib, hosildorlikni oshirishga yordam beradi. Shuningdek, aqlli suv boshqaruvi tizimlari joriy qilinib, real vaqt rejimida suv taqsimoti nazorat qilinmoqda. Davlat tomonidan fermerlarni qo'llab-quvvatlash va innovatsion yechimlarni keng joriy etish bo'yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu texnologiyalar O'zbekistonning suv resurslaridan samarali foydalanishiga xizmat qilmoqda:

Jahon Banki hisobotiga ko'ra global iqlim o'zgarishlari O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishni jadallashtirishni talab qilmoqda. Suv resurslarining kamayishi va ekologik muammolar qishloq xo'jaligi hamda sanot tarmoqlarida barqaror yechimlarni izlashga undaydi. Shu bois, mamlakatda suv tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik toza ishlab chiqarish usullari keng joriy etilmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish uzoq muddatli barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni ta'minlash uchun muhim yo'nalishdir [19].

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytganda, Yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi global iqtisodiy rivojlanishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida barqaror o'sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga qaratilgan strategik jarayondir. An'anaviy iqtisodiy modelning resurslarga haddan tashqari tayanishi va ekologik tizimlarga yetkazgan salbiy ta'siri natijasida dunyo mamlakatlari yangi, ekologik mas'uliyatli iqtisodiy tizimni shakllantirish zaruratiga duch kelmoqda. Yashil iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o'sish va rivojlanishning yangi modeli, balki atrof-muhitni muhofaza qilish hamda resurslardan samarali foydalanishning muhim vositasi hisoblanadi. Global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni jadallashmoqda va ko'plab davrlar ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy qilmoqda. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o'tish - bu faqat ekologik chora emas, balki yangi iqtisodiy paradigma hisoblanadi. U energiya samaradorligi, innovatsiyalar, ijtimoiy barqarorlik va xalqaro hamkorlikni o'zida mujassam

etgan holda, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosiy kafolatiga aylanmoqda. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish hamda ekologik innovatsiyalarni joriy ettirishni nazarda tutadi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, toza texnologiyalar va "yashil" ishlab chiqarish modellariga o'tish nafaqat ekologik foyda keltiradi, balki yangi investitsiya imkoniyatlarini ham yaratib beradi. Shu jihatdan, yashil iqtisodiyot raqamli innovatsiyalar, energiya xavfsizligi va ekologik muvozanat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlaydi. O'zbekiston ham ushbu tendensiyadan chetda qolmay, qayta tiklanuvchi energiyamanbalaridan foydalanish, suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish va ekologik siyosatni takomillashtirish yo'lida muhim qadamlarni tashlamoqda.

Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatib, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Kelajakda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, bir qancha ekologiki qonunchiliklarni kuchaytirish va xalqaro darajada ekologik hamkorliklarni rivojlantirish orqali O'zbekiston yashil iqtisodiyotning yetakchi mamlakatlaridan biriga aylanishi mumkin.

### **Adabiyotlar:**

1. "United Nations Environment Programme (UNEP)" 2016-yil 27-martda asl nusxadan arxivlangan.
2. <https://www.unep.org/explore-topics/resource-efficiency/what-we-do>
3. BLUEPRINT FOR A GREEN ECONOMY a report by David Pearce Anil Markandya Edward B.Barbier. <https://www.taylorfrancis.com/books/mono>.
4. [https://www.researchgate.net/publication/230221479.The\\_PolicyChallenge\\_for\\_green\\_economy\\_andSustainable\\_Development](https://www.researchgate.net/publication/230221479.The_PolicyChallenge_for_green_economy_andSustainable_Development)
5. <https://whygreeneconomy.org/information/unep-green>
6. <https://www.researchgate.net/publication/40932460>
7. <https://www.oecd.org/en/publications/serials/oecd-green-growth>
8. Green economy: meaning and principles. <https://greenly.earth/en-us/blog/company-guide/green-economy-meaning-and-principles>
9. Yuldoshev I., " O'zbekistonda yashil iqtisodiyot: rivojlanish istiqbollari", 2020 - yil.
10. Turobova H. R., Kadirova M. M. Yashil iqtisodiyot / O'quv qo'llanma / H. R. Turobova, M. M. Kadirova – Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2025.-96b.
11. To'raev Sh., "Qishloq xo'jaligi va yashil iqtisodiyot: ilmiy yondashuvlar", 2019
12. Karimov A., "Yashil iqtisodiyotda infratuzilma masalalari", 2022

13. Nasimov F., “Sanoat va yashil iqtisodiyotning o‘zaro aloqalari”, 202214.
- Mahkamov J., “Yashil iqtisodiyot va innovatsiyalar: O‘zbekistondagi muammolar va yechimlar”, 2021
15. <https://dualcitizeninc.com/global-green-economy-index/>
16. <https://www.greenmatch.co.uk/blog/greenest-countries>
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-213-sonli qarori. O‘zbekiston Respublikasida "Yashil" iqtisodiyotga o‘tish jarayonida milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent, 2024-yil.
18. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Iqlim o‘zgarishini moliyalashtirish, salohiyatni oshirish va texnologiyalar transferi to‘g‘risida milliy axborot ma‘ruzasi. - Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2023. - 125 b.
19. Dual Citizen LLC. Global Green Economy Index 2023. – Вашингтон, 2023. – 112 с.
20. David Pearce, Anil Markandya, Edward B. Barbier. Blueprint For a Green Economy. <https://www.taylorfrancis.com/books/mono/>
21. Barbier E. The Policy Journal of the UNEP Green Economy Initiative
22. Jacobs M. The Green Economy: Environment, Sustainable Development and the Politics of the Future
23. Schmalensee R., Stavins R. The Review of Environmental Economics and Policy

## DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

### **BOSH MUHARRIR:**

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

### **MUHARRIR:**

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

